



04.02.2022 дати

Озодбек-Дилсуз МЧЖ ва Жиззах шаҳар МТБ ўртасида 55950000,00 сўм умумий суммага тузишган 2 - солни шартномага

ТҮЛОВЛАР ЖАДВАЛИ*

Боб

Шахсий газна хисобварак

251

400522860084017091100251032

сўмда

2022 й. ойлар номи.	Харажатлар турি** (бюджет таснифининг тегишли коди)			Жами
	4252300			
Январь				
Февраль	55 950 000.00			55 950 000.00
Март				
Апрель				
Май				
Июнь				
Июль				
Август				
Сентябрь				
Октябрь				
Ноябрь				
Декабрь				
Жами йил бўйича	55 950 000,00			55 950 000,00

Жами 55950000,00 сўм

Эллик беш миллион тўккиз юз эллик минг сўм 00 тийин

сумма сўз билан

Юкоридаги кўрсатилган суммадан 16785000.00 сўм ёки 30,00%*** шартноманинг умумий суммасидан
30 % ***2022 йил феврал ойида тўланиши лозим.

(*) — бюджет ташкилоти, бюджет маблаги олуви ва БМЖ маблаги олуви томонидан назначилик бўлинмасига иккى нусхаси
тақдим этилади;

(**) — бўлим, кичик бўлим ва харажат моддаси кўрсатилади;

(***) — Юкоридаги кўрсатилган суммадан ойига % жорий ойнинг санаасигача хар ойда олдиндан тўланиши
лозим (ушбу сатр бюджет ташкилоти, бюджет маблаги олуви ва БМЖ маблаги олуви томонидан коммунал хизматлар
кўрсатиш, алока хизматлари ва конун хужжатларида назарда тутилган хар ой доимий равишда товарлар (ишлар, хизматлар)
етказиб бериш шартномалари бўйича олдиндан тўловни амалга ошириш холларида тўлдириллади).

Буюртмачи раҳбари

М.У.

Буюртмачи боп бухгалтери

Фазначилик бўлинмасининг
ходими кабул қилди

(имзо)

«___» 20 ___ й.

Шодмонкулова Н. Б.

ФИШ

Тантатов Б. К.

ФИШ

Буюртмачи ходими
кабул қилди

(имзо)

«___» 20 ___ й.

Ovqatlanishni tashkil qilish (autsorsing) bo'yicha 2-sonli maishiy pudrat shartnomasi

Jizzax shaxar

04.02.2022 yil

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 sentyabrdagi PQ-3261 sonli "Maktabgacha ta'lim tizimini tubdan takomillashtirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risda" gi Qarori. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407- sonli "Daylat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qushimcha chora tadbirlari" to'g'risidagi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021 yil 30 noyabrdagi Davlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov komissiyasi yig'ilishining 28-sonli bayoni ijrosini bajarish maqsadida **Jamoatchilik ovqatlanish korxonasi «OZODEK DILSO'Z» ma'suliyati cheklangay jamiyat** nomidan Nizom asosida faoliyat yuritayotgan direktor Z.Murtazoqulov, bir tomonidan, **Jizzax shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi** nomidan Nizom asosida faoliyat yuritayotgan raxbar N. Shodmonqulova, ikkinchi tomonidan (bundan keyin "tomonlar" deb ataladi) mazkur shartnomani tuzdilar.

I. Shartnoma predmeti

1. Mazkur maishiy pudrat shartnomasi predmeti – buyurtmachining mablag'lari hisobiga Autsorser tomonidan har kuni uch mahal issiq taomlar bilan ovqatlanishni tashkil qilishdir. Hisob-kitob usuli bo'yicha aniqlanadigan bolalar soni buyurtmachining talabnomasiga muvofiq, me'yoriy xujjatlar va sanitariya qoidalari talablariga rioya qilgan holda hamda quyidagi manzilda joylashgan buyurtmachilar bilan kelishilgan taomnomaga asosan belgilanadi: Jizzax shaxri. 8,10-sonli maktabgacha ta'lim muassasalari. Shartnoma tuzilganda uning qiymati **55 950 000 (ellik besh million to'qqiz yuz ellik ming)** so'm bo'lib, shundan **5595000 (besh million besh yuz to'qson besh ming)** so'mi 10 % ni tashkil qiladi.

2. Buyurtmachi bilan kelishilgunga qadar uning talabnomasiga kiritilmagan buyurtmachining ishechi-xodimlari ham qo'shimcha shartlar asosida uch mahal issiq ovqat bilan ta'minlanishi mumkin.

II. Terminlar va atamalar

2. Mazkur ovqatlanishni tashkil qilish bo'yicha maishiy pudrat shartnomasida (Autsorser) quyidagi terminlar va atamalar qo'llaniladi:

2.1. Buyurtmachi: ovqatlanish autsorsingi tashkil qilinadigan Jizzax shaxridagi 8,10-sonli maktabgacha ta'lim muassasalari.

2.2. Autsorser – **«OZODEK DILSO'Z» ma'suliyati cheklangan jamiyat**.

2.3. Shartnoma – maktabgacha ta'lim sohasida davlat-xususiy sherikchilik asosida maktabgacha yoshdag'i bolalarning Jizzax shaxridagi maktabgacha ta'lim muassasalarida haqiqiy davomatidan kelib chiqqan holda ularning har kuni uch mahal issiq taomlar bilan ovqatlanishini tashkil qilish bo'yicha maishiy pudrat shartnomasi.

2.4. Ma'sul mansabdor shaxs – O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining buyrug'i bilan tasdiqlangan, autsorsing tashkil qilish loyihasiga raxbarlik qilayotgan Jizzax shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi (yoki uning vazifasini bajaruvchi mansabdor shaxs).

2.5. To'lovchi – ovqatlanish autsorsingi tashkil qilinqdigan Jizzax shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi.

2.6. Dastlabgi (prognoz) qiymat – shartnomani tuzish sanasida amalda bo'lgan oziq-ovqat maxsulotlar haqiqiy bozor narxlarining o'rtacha ko'rsatkichi (Jizzax viloyat xokimiyyati taqdim etgan narxlardan oshmagan xolda) bo'yicha bitta ovqatlanuvchining tegishli kontingenti uchun tasdiqlangan ovqatlanish me'yordan kelib chiqib belgilangan, Autsorserning barcha xarajatlarini (soliqlar, ishechi-xodimlarning oylik maoshlari, transport xizmati, hamda kommunal xizmatlardan tashqari asbob-uskunalarini ta'mirlash va foydalanish xizmatlari va boshq.) o'z ichiga olgan, 10 % ustama hisobga olingan qiymat.

2.7. Xizmatlarning xaqqiy qiymati – hisob-faktura va bajarilgan ishlar dalolatnomasida ko'rsatilgan foydalanilgan xizmatlarning xujjatlar bilan tasdiqlangan hajmi. Ushbu hajm bitta ovqatlanuvchi uchun ovqatlanish me'yori bo'yicha tuzilgan kundalik taomnomadan kelib chiqib hisoblanadi (almashtirish hisobga olingan holda). Bunda har bir foydalanilgan oziq-ovqat maxsuloti miqdori haqiqiy bozor narxlarining o'rtacha ko'rsatkichiga (Jizzax viloyat xokimiyyati taqdim etgan narxlardan oshmagan holda) ko'paytiriladi, 10% ustama hisobga olingan holda. Bitta ovqatlanuvchi uchun ovqatlanishning haqiqiy qiymati tasdiqlangan me'yorlarga muvofiq maktabgacha yoshdag'i bolalarni oziq-ovqat maxsulotlari bilan to'liq hajmda ta'mirlash

bo'yicha talablarga qat'iy rioya qilgan holda hisoblangan dastlabki (prognoz) qiymatidan oshb ketishiga yo'l qo'yilmaqdi.

III. Shartnomani tuzish uchun huquqiy asoslar

3.1. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 30 iyundagi 407- sonli "Davlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirish tizimini takomillashtirishning qushimeha chora tadbirdari" to'g'risidagi Qarori va O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligining 2021 yil 30 noyabrdagi Davlat Maktabgacha ta'lim tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov komissiyasi yig'ilishining 28-sonli bayoni shartnomani tuzish uchun huquqiy asoslardir.

IV. Hisob-kitoblar tartibi

4.1.1. Autsorser shartnomanining oylik qiymatidan 30 % miqdorida oldindan to'lovga hisobni taqdim etadi.

4.1.2. Shartnomani O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi G'aznachiligi organlarida ro'yxatdan o'tkazilganday so'ng Buyurtmachi Autsorser taqdim etgan hisobga asosan o'n ish kuni davomida xizmatlar uchun oldindan to'loyni amalga oshiradi.

4.2. Taomnomani (oziq-ovqat maxsulotlari ro'yxati) Autsorser tomonidan belgilangan me'yorga to'liq yetkazish sharti bilan har haftada tuziladi. Taomnomani Buyurtmachi bilan kelishilishi shart.

4.3. Maktabgacha ta'lim muassasasi (MTM) mudiri har kuni talabnomaga imzo qo'yib, Autsorserga yuboradi. Talabnomada ovqatlanuvchilarning haqiqiy soni ko'rsatiladi.

4.4. Autsorser har kuni vakolatli shaxslar bilan kelishilgan holda, buyruqqa asosan, bitta ovqatlanuvchiga sarflangan oziq-ovqat maxsulotlari qiymati va ustama qiymatlarni ko'rsatib, taomnomada ko'zda tutilgan taomlarni tayyorlash bilan bog'liq haqiqiy xarajatlarning bat afsil ro'yxatini shakllantiradi.

4.5. Ovqatlanuvchilarning haqiqiy soni va bitta ovqatlanuvchiga xizmat ko'rsatishning haqiqiy qiymati (qo'shimcha qiymatlar hisobga olingan holda) to'g'risidagi ma'lumotlarga asosan Buyurtmachining hamda Autsorserning mansabдор shaxslari tomonidan har o'n kalendar kuniда bajarilgan ishlar dalolatnomasi tuziladi va hisob-faktura rasmiylashtiriladi, to'lanishi kerak bo'lgan yig'indi (summa) ko'rsatilib. Autsorser rahbari va MTM mudiri tomonidan imzolanadi.

4.6.1. Hisob-fakturalar, ularga bajarilgan ishlar dalolatnomalari ilova qilingan holda, Buyurtmachining moliya bo'limiga taqdim etiladi. Hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalariga aspsan shartnomani qiyomatining qolgan qismini to'lab berish besh ish kuni davomida belgilangan tartibda analga oshiriladi.

4.6.2. Shartnomada belgilangan dastlabki (prognoz) qiymatga nisbatan amalda ko'rsatilgan xizmatlar haq pasayish tarafga o'zgarganda Buyurtmachi haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar haqini to'lab beradi. Bu holda hisobot davrida (chorakda) haqiqatda ko'rsatilgan xizmatlar qiymati talab darajasida rasmiylashtirilgan hisob-fakturalar va bajarilgan ishlar dalolatnomalariga asosan har chorakda tuziladigan tegishli qo'shimcha bitimda aks ettiriladi (aniqlanib ko'rsatiladi).

V. Sifat va taomnomani

5.1. Taomlar va nayyor maxsulotning sifati SanPin № 0348-17 va unga 2018 yil 27 apreldagi 2-sonli o'zgartirish va qo'shimchalarda tegishli toifalar uchun ko'rsatilgan sanitarni qoidalar, gigiyenik me'yorlar va boshqa me'yoriy xujjalarga to'liq muvofiq bo'lishi shart.

5.2. Autsorser tomonidan foydalani layotgan oziq-ovqat maxsulotlari xujjalalar, tegishli sertifikatlar va ularning sifatini tasdiqlovchi boshqa xujjalarga ega bo'lishi kerak, buni Buyurtmachi (brokeraj komissiyasi) nazorat qilib boradi.

VI. Taomlarni tayyorlash bilan bog'liq xarajatlar

6.1. O'zbekiston Respublikasi Maktabgacha ta'lim vazirligi hamda O'zbekiston oshpazlar assotsiatsiyasi tomonidan 2017 yil 6 dekabrda tasdiqlangan "Maktabgacha ta'lim muassasalarida tayyor taomlarni yetkazib berish va to'g'ridan-to'gri shartnomalar tuzish yo'li bilan sog'lom ovqatlanishini tashkil etish tartibi to'g'risidagi Nizom" ga muvofiq Buyurtmachi belgilangan tartibda beg'araz asosda ("nol" qiymatda) Autsorserga MTM tasarrufidagi ovqatlanishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan xonalar, oshxonalar asbob-

uskunalari, mebel, jixozlarni (idish-tovoq) taqdim qiladi. Taomlarni tayyorlash bilan bog'liq kommunal xizmatlar Buyurtmachi hisobidan qoplanadi.

6.2. Yuqorida ko'rsatilgan xonalar va mulk Autsorserga ijara shartnomasi asosida ijara to'loving "nol" qiymati bo'yicha qabul qilish-topshirish dalolatnomasi va alohida shartnomasi rasmiylashtirilib yaroqli holatda topshiriladi.

6.3. Autsorser o'z mablag'lari hisobidan, ovqatlanish qiymatini oshirmasdan 10 % qo'shimecha qiymat doirasida quyidagi xarajatlarni amalgaga oshiradi: soliqlarni to'lash, taomlarni tayyorlovchi va uzatuvechi ishechi-xodimlarga ish haqini to'lash, oziq-ovqat mahsulotlarini xarid qilish, ularni savdo do'konlaridan xizmat ko'rsatish joyigacha yetkazib berish, muzlatish kompressorlarni ishehi holatda tutish, ularni ta'mirlash, zarur vositasini (xladagent) quyish, mebel, xonalar va boshqalarni joriy ta'mirlash va talab qilinadigan holatda tutish.

6.4. Zarurat tug'ilganda Autsorser ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirish uchun o'ziga tegishli idish-tovoq va boshqa oshxonalar jixozlaridan foydalanish huquqiga ega.

VII. Tomonlar majburiyatları va javobgarligi, nizolarni hal etish

7.1. Autsorser shaxsiy tarkib ovqatlanishini uzlusiz ta'minlashdan tashqari quyidagilarni bajarishga majbur: belgilangan tartibda vakolatli organlar bilan kelishilgan va tibbiy ko'rikdan o'tgan ishechi-xodimlarni ovqat tayyorlashga jalg etish; ishechi-xodimlari Buyurtmachi hududida etika, xulq-atvor, hamda Ichki tartib qoidalariga rioya etishlarini nazorat qilish; shartnomani bekor qilish niyati borligi to'g'risida buyurtmachini kamida bir oy avval yozma tarzda ogohlantirish, bu muddat tugaguncha ovqatlanishni uzlusiz ta'minlab turish; Davlat sanitariya-osoyishtalik markazi xodimlari talabiga ko'ra oziq-ovqat maxsulotlarining sifatini o'rganish, ovqatni tayyorlash jarayonini kuzatish uchun to'sqinlik qilmasdan ularga ruxsat berish; Davlat moliya nazorati xodimlari talabiga binoan ovqatlanish uchun narxlarni shakllantirish asoslanganligi va mazkur shartnomasi doirasida ajratilgan mablag'lar maqsadli sarflanishini o'z vaqtida o'rganib borish yuzasidan choralar qabul qilish.

7.1.1. Buyurtmachi maktabgacha yoshdag'i bolalar ovqatlamishini ta'minlash bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlar uchun haq to'lashdan tashqari quyidagilarni bajarishga majbur: foydalanilayotgan oziq-ovqat maxsulotlar va ovqat tayyorlanishi jarayonining sanitari-epidemiologik holati muntazam, tizimli nazorat qilib borish bo'yicha choralar qabul qilish; ovqatlanish uchun narxlarni shakllantirish asoslanganligi va mazkur shartnomasi doirasida ajratilgan mablag'lar maqsadli sarflanishini o'z vaqtida o'rganib borish yuzasidan choralar qabul qilish.

7.2. Mazkur shartnomasi shartlarini bajarmaslik yoki talab darajasida bajarmaslik uchun tomonlar O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi, O'zbekiston Respublikasining "Xo'jalik yurituvechi subektlar faoliyatining shartnomaviy-huquqiy bazasi to'g'risida" gi Qonuni va amaldagi qonunchilikning boshqa xujjatlar talablarida nazarda tutilgan javobgarlikni o'z zimmasiga oladilar.

Autsorser mazkur shartnimasi shartlarini buzganligi uchun qonunchilikda o'rnatilgan tartibda to'liq javobgarlikni o'z zimmasiga oladi, shu bilan birgalikda u ovqatlanishning zaruriy me'yorlarini qabul qilish lozimligi va tayyorlanayotgan ovqatning sifatini ta'minlashi kerakligi to'g'risida ogohlantirildi.

Jizzax shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi mudiri Buyurtmachi bilan birgalikda foydalanilayotgan oziq-ovqat maxsulotlari va ovqat tayyorlanishi jarayonining sanitari-epidemiologik holati muntazam, tizimli nazorat qilib borish bo'yicha choralar qabul qilmaslik, ovqatlanish uchun narxlarni shakllantirish asoslanganligi va mazkur shartnomasi doirasida ajratilgan mablag'lar maqsadli sarflanishini o'z vaqtida o'rganib bormaslik uchun javobgardir.

7.3. Jizzax shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi mazkur shartnomasi shartlari Autsorser tomonidan bajarmaslik holatlarda mazkur shartnomani bir tomonlama bekor qilishiga haqlidir ya shartnomani bekor qilish niyati borligi to'g'risida Autsorserni kamida bir hafta avval yozma ravishda ogohlantiradi.

7.4. Mazkur shartnomani bajarish davrida paydo bo'lgan barcha bahs va nizolar muzokaralar yo'li bilan hal etiladi. Muzokaralar yo'li bilan hal etish imkoniyati yo'q bo'lganda tomonlar amaldagi qonunchilikda o'rnatilgan tartibda iqtisodiy sudga murojaat etish huquqiga ega.

VIII. Korrupsiyaga qarshi kelishuv

8.1. Shartnomasi bo'yicha o'z majburiyatlarini bajarishda Tomonlar korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha qoidalarga, shu jumladan amaldagi qonunlarga rioya etilishini ta'minlaydi, ya'n ular, ularning

xodimlari, kafillangan shaxslar, benifitsiyalarni va shartnomani amalga oshirishdagi xamkorlari, pudratchilari tomonidan bir-biriga yoki davlat ishtirokida tashkilot xodimiga pora berish yoki pora berishda vositachili qilish moddiy yoki nomoddiy naf olishdan tiyilishi lozim. Tomonlar ushbu harakatlarning oldini olish bo'yicha chora -tadbirlar qabul qilinishini kafolatlaydi.

8.2. Tomonlar korrupsiyaga qarshi qoidalar buzilganda yoki asosli gumonlar yuzaga krlganida darxol yozma ravishda (electron pochta orqali) yoki ishonch telefoni (78 150 26 03) orqali bir-birini xabardor qilish majburiyatini oladi. Bunda tomonlar yuzaga kelgan xolatga oydinlik kiritish maqsadida yozma izox talab qilish xuquqiga ega va murojaatini olgan tomon 10 (o'n) ish kuni mobaynida tushuntirish berishi yoki o'z fikrini bildirish mumkin.

8.3. Mazkur bobning talablari bajarilmaganda, shu jumladan belgilangan muddatda korruption xavf-xatar bartaraf etilmasa, tomonlar amalga oshirgan choralar korruption holati pasayishiga olib kelmasa, boshqa tomon shartnomani bekor qilish huquqiga ega yoki uning ijrosini to'xtatib qo'yishi mumkin.

8.4. Ushbu bobda ko'rsatilgan asoslar bo'yicha shartnomani bir tomonlama bekor qilish talab qilgan tomonga yetkazilgan zararlarni qoplash qonunchilikda ko'rsatilgan tartibda amalga oshiriladi, ushbu bobning majburiyatlarini buzgan tomon esa shartnomaning bir tomonlama bekor qilinishi oqibatida ko'riltgan zararlar qoplanishini talab qilishga haqli emas.

IX. Boshqa shartlar

9.1. Mazkur shartnomaga har qanday o'zgartirish va qo'shimchalar yozma tarzda bajarilganda va tomonlar nomidan imzolash uchun vakillar tomonidan imzolanganda haqiqiy hisoblanadi.

9.2. Tomonlarning hech biri ikkinchi tomonning rozilgisiz mazkur shartnoma bo'yicha o'z huquq va majburiyatlarini har qanday uchinchi tomonga bera olmaydi.

9.3. Tomonlar nomlanishi, to'lov yoki boshqa rekvizitlari o'zgarganda ikkinchi tomonga bu haqda zudlik bilan yozma ravishda xabar berildi.

9.4. Mazkur shartnoma ikki varaqda, bir xil yuridik kuchga ega va mazmun jihatidan ikkita bir xil nusxada tuzildi, tomonlar imzolari va muhrlari bilan tasdiqlandi.

X. Shartnoma amal qilish muddati.

10.1. Mazkur shartnoma O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligining G'aznachiligidagi ro'yxatdan o'tkazilgan paytdan boshlab kuchga kiradi va 2022 yil 31 dekabrgacha amalda bo'ladi.

XI. Tomonlarning yuridik manzillari va rekvizitlari

Autsorser	Buyurtmachi
<p>ООО «OZODEB DILSO'Z» (korxona nomi)</p> <p>Manzil: Jizzax sh, SH.Rashidov</p> <p>Tel/faks: 98 261 57 77</p> <p>H/r: 20208000104938154001</p> <p>Bank nomi: AT "Aloqabank" Jizzax filiali</p> <p>MFO: 01026 STIR: 302002454</p> <p>OKED: 46900</p>	<p>Jizzax shaxar maktabgacha ta'lim bo'limi (btudjet mablag'larini oluvchi nomi)</p> <p>Manzil: Jizzax shaxar Zargarlik maxallasi</p> <p>Tel/faks: 72 223 8415, 94 571 3007</p> <p>Sh/x: 400522860084017091100251032</p> <p>Bank nomi: Markaziy bank Toshkent ahavar XKKM</p> <p>MFO: 00014 STIR: 305 152 471 OKED:</p> <p>G'aznachilik nomi: O'z.Resp. Moliya vazirligi g'aznachiligi</p> <p>G'azna h/v: 23402000300100001010</p> <p>Bank nomi: Markaziy bank Toshkent shaxar XKKM</p> <p>MFO: 00014 STIR: 201 122 919</p>



Z.Murtazoqulov



Rahbar

M.II

N.Shodmonqulova

(imzo)



O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI ADLIYA AZIRLIGI
JIZZAX VILOYATI ADLIYA BOSHQARMASI
JIZZAX SHAHAR YURIDIK XIZMAT KO'RSATISH MARKAZI

130100, Jizzax shahar, Sharof Rashidov shox ko'chasi __ -uy
tel: (998 55) 151-15-73 el.pochta: Jizzaxyuridikmarkaz@gmail.com

**YURIDIK AHAMIYATGA EGA HUJJATLARNING QONUN
HUJJATLARIغا MUVOFIQLIGI TO'G'RISIDA
HUQUQIY XULOSA**

1. **Loyihaning turi:** Shartnoma
2. **Loyihaning nomi:** Ovqatlanishni tashkil qilish (autsorsing) bo'yicha 2-sonli maishiy pudrat shartnomasi.
3. **Loyihaning mazmuni:** Jizzax shaxar maktabgacha ta'lif bo'limi va «Ozzbek-Dilsoz» MCHJ o'rutasida 4.02.2022 yildagi 2-sonli umumiy qiymati 55 950 000 (ellik besh million to'qqiz yuz ellik ming) so'mlik shartnoma tuzilgan bo'lib, shundan 5 595 000 (besh million besh yuz to'qson besh ming) so'mi 10 % ni tashkil qiladi.
4. **Loyiha uchun asos:** Davlat makatabgacha ta'lif tashkilotlarida sog'lom ovqatlantirishni autsorsing usulida tashkil etish bo'yicha tanlov komissiyasi yig'ilishining 28-sonli qarori (30.11.2021).
5. **Loyihani ishlab chiquvchi tashkilot:** Jizzax shaxar maktabgacha ta'lif bo'limi tomonidan 2022-yil 4-fevral kuni ishlab chiqilgan.
6. **Loyiha kelib tushgan sana :** 2022-yil 4-fevral
7. **Loyiha amaldagi qonun hujjatlariga muvofiq ishlab chiqilgan.**

Markaz bosh yuriskonsulti:



D.Nizomov